

AYOL SHAXSINI O'RGANISH IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Qodirova Sarvinoz Ikromovna

Osiyo Xalqaro Universiteti magistri.

Xiva tuman "Inson" ijtimoiy
xizmatlar markazi mutaxasisi.sarvinozqodirova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi ayol shaxsini ijtimoiy-psixologik muammo sifatida o'rganish masalalari yoritilgan. Ayol shaxsining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy muhit, gender rollari, madaniy qadriyatlar va psixologik omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, ayolning o'zini anglash jarayoni, ijtimoiy moslashuvi va psixologik xususiyatlarining jamiyatdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ayol shaxsi, ijtimoiy psixologiya, gender rollari, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy muhit, psixologik omillar, gender tengligi.

Аннотация: В данном тезисе рассматриваются вопросы изучения личности женщины как социально-психологической проблемы. Анализируются социальная среда, гендерные роли, культурные ценности и психологические факторы, влияющие на формирование личности женщины. Также раскрываются особенности самосознания, социальной адаптации и психологических характеристик женщины в современном обществе.

Ключевые слова: личность женщины, социальная психология, гендерные роли, развитие личности, социальная среда, психологические факторы, гендерное равенство.

Abstract: This thesis examines the study of women's personality as a socio-psychological issue. It analyzes the social environment, gender roles, cultural values, and psychological factors influencing the formation of women's personality. The paper also highlights issues of self-awareness, social adaptation, and psychological characteristics of women in modern society.

Keywords: women's personality, social psychology, gender roles, personality development, social environment, psychological factors, gender equality

Ayol jamiyatning muhim ijtimoiy subyekti bo'lib, uning shaxs sifatida shakllanishi ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar, gender rollari hamda psixologik omillar ta'siri ostida kechadi. Jamiyatda mavjud ijtimoiy stereotiplar va an'anaviy qarashlar ayolning o'zini anglash jarayoni, ijtimoiy faolligi va ruhiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ayol shaxsi jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Uning ijtimoiy rollari, psixologik xususiyatlari, qadriyatlari va xulq-atvori nafaqat oila, balki keng ijtimoiy

(11th international scientific and practical conference)

muhit rivojiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ayol shaxsini o'rganish ijtimoiy-psixologik muammo sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi

Azaldan ayol shaxsini o'rganishni Ijtimoiy nuqtai nazardan olib qarasak uning jamiyatdagi gender rollari, oilada an'ana va urf-odatlari, ta'lim, mehnat va oiladagi mavqei bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ko'plab jamiyatlarda ayolga nisbatan yillar davomida shakllanib kelayotgan stereotiplar uning o'zini namoyon etishi va shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayol psixologiyasi ko'pincha biologik, ijtimoiy va madaniy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

Ayol shaxsining Ijtimoiy-psixologik muammolarini o'rgangan vaqtda uning gender tengligi, ijtimoiy bosim va uning ijtimoiy muhitdagi rollari. Shuningdek, ayolning bir vaqtning o'zida bir nechta ijtimoiy rollarni bajarishi natijasida yuzaga keladigan rol konflikti va psixologik zo'riqish muammolari masalan oilada – mexribon ona, kelin, suyuqli turmush o'rtoq, ishda xodim va shuningdek uning aksi kabilar. Bu muammolar ayolning ruhiy holati, ijtimoiy faolligi uning hayot sifati bilan bevosita bog'liq jarayon xisoblanadi

Xulosa qilib aytganda, ayol shaxsini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish ularning gender tengligini ta'minlash, ayollarning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Bandura A. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi. — Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
2. Leontyev A. N. Faoliyat. Ong. Shaxs. — Toshkent: Fan, 2001.
3. Rubinshteyn S. L. Umumiy psixologiya asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4. Vygotskiy L. S. Jamiyat va tafakkur: oliy psixik funksiyalarning rivojlanishi. — Toshkent: Fan, 2000.